

ЎЗБЕКИТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси фанларини
бошқа фанлар билан интеграциялашнинг муаммолари ва
ечимлари” мавзусида**

Халқаро миқёсида илмий-техник анжуманининг

МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ



СБОРНИК ДОКЛАДОВ

**Международный научно-технический конференция
“Проблемы и решения интеграции изобразительного искусства
и инженерной графики с другими дисциплинами”**

Андижон - 2020

93	Kenjayeva X.O. Tasviriy san'atning rivojlanishida internet tarmog'ining ahamiyati.	295
94	Красновская Н.В. Виртуальная модель «стилуса»	298
95	Ли В. Г. Виртуальная модель авторской компьютерной мышки	301
96	Mamatqulova N.A.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kompyuterli ta'lim berish usullari	304
97	Мансуров Н.А. Обоснование формирования патриотических чувств у студентов путем обучения универсальным ценностям	307
98	Менгноров И. Ж. "Рангасвир машгулотларида талабаларнинг касбий компитентлигини шакллантириш технологияси"	310
99	Морозкина Е. Методические аспекты разработки заданий по выполнению орнамента с использованием CorelDRAW.	313
100	Марасулова И.М, Кудратуллаев Р. Тасвирий санъат машгулотларида кластерли технологияларни қўллаш	317
101	Mirzaliyev Z, Sindarova Sh. Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish.	320
102	Mirzayev S.O, Temirov M.A. Kompozitsiya darslarida muvozanat (statika) va harakat (dinamika) qoidalarini tushuntirish.	324
103	Саидов Ж.Д. Мухандислик графикаси фанини ўқитишда замонавий компьютер технологиялари ва график дастурларининг ўрни	327
104	Саипова М.С. Нақшларда рамзийликни фойдаланиши	330
105	Tashimov N.E, Zaitov S.R. Kredit-modul tizimida chizma geometriya fanini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish.	332
106	Уринбоев И.К, Исаков Ж.А. Использование цифровых технологий в процессе преподавания изобразительного искусства.	335
107	Халмурадов Т.Н.,Тўраев М.У. Аграр соҳа олий таълим тизимида инновацион таълим технологиялари ва улардан фойдаланишда ўқитувчи компетенцияси.	338
108	Ergashev N.G. The use of modern means of visual programming techniques in the issues of civilization gradients	344
109	Yakubova N.O. Muammoli o'qitish texnologiyasi. o'qitish shakillar	349
110	Худойназарова Ў Тасвирий санъат фанини ўқитишда образли тарбия технологияси ҳақида	352
	М у н д а р и ж а	356

MUAMMOLI O'QITISH TEXNALOGIYASI. O'QITISH SHAKILLARI.

YAKUBOVA N.O.,

**-Guliston davlat
universiteti "San'atshunoslik"
fakulteti o'qituvchisi.**

Oily maktabdagi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil qilishning ko'p qirraliligi yagona tizimi ramkasida amalga oshiriladi. Oily maktabdagi o'qitishning shakl va metodlari yig'indisi o'quv jarayoning obektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksini tashkil etadi. Oily maktabdagi *o'qitishning shakl va metodlari tasnifi* o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan *ikki faoliyatga* tayanadi:

- *o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;
- *talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

Oily ta'lim o'quv jarayoni shakllariga *leksiya, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlari, maslahatlar, ekiskursiya, ekispeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogic amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil taxsili.*

Leksiya u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish. S. I. Arhangeliskiyi takidlashicha, leksiya o'qituvchi shahsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, etiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda o'qitishning yo'naltiruv, ahborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Leksiyaning yo'naltiruv funksiyasida talabalarning diqqati o'quv materyalining asosiy qoydalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi ro'li va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi. Leksiyaning ahborot berish funksiyasi o'qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, hulosalarning mohiyatini ochish chog'ida amalga oshiriladi. O'qitishning metodik funksiyasini qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, ilmiy izlanishning tamoyillariga va yondashuvlarining aniqlashga yordam beradi. O'qitishning tarbiyalov funksiyasi leksiya jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikirlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, leksiyada hal qiladigan *asosiy vazifalar* quydagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;
- o`quv faoliyati va o`quv mashg`ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko`rsatiladi.

Leksiya. Didaktik maqsadi, o`qitish jarayonidagi o`rni, axborotlarni bayon qilish metodlariga ko`ra o`ziga xos xususiyatlariga ega bo`ladi.

Didaktik maqsadiga (yo`nalganligiga) ko`ra kirish, tematik va umumiy yakuniy leksiyalar farqlanadi. Ko`rish yoki muqaddima leksiyada kurs (bo`lim, mavzu) ning ilm-fan tuzimidagi o`rni, ushbu materialni amaliyotda qo`llash imkoniyatlari, kurs (bo`lim, mavzu) mazmunini o`rganish metodlari ochib beriladi. Bunday lrsiyaning muhim xususiyati shundaki, unda o`qituvchi asosiy masalaning u yoki bu tomonlarigagina to`xtaladi, bu masalalar keyinchalik albatta detalma detal yoritib beriladi. *Tematik leksiyalar* ayniqsa keng tarqalgan. Bunday leksiya u yoki bu mavzuga bag`ishlangan bo`lib, unda faktlar, ularning tahlillari, xulosalar mazmuni bayon qilinadi va konkret ilmiy qoidalar isbotlanadi. Umumiy-yakuniy leksiya avval o`rganilgan materiallarni qaytadan umumlashtirishga qaratilgan bo`ladi. Uning mazmuni avval bayon qilingan mazmunga o`hshamaydi, balki talabalar tomonidan o`zlashtirilgan axborotlarni yuksak abstraksiyalash mavhum bosqichda tizimga tushiriladi. Bunday leksiyalar talabalar bilimining chuqurlashtirishida va o`quv fani metodologiyasini yaxshi tasavvur qilishda alohida ahamiyatga molik bo`ladi.

“*Amaliy mashg`ulot*” termini pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma`noda izohlanadi. “Amaliy mashg`ulot” termini keng ma`nodamashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg`ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg`ulotlarning leksiyadan farqlanadigan asosiy me`yorlaridan biri o`quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi harakatlaridan o`ziga hosxarakter bilan namoyon bo`lishdir. Ular vazifalariga ko`ra ham farqlanadi. Agar leksiyada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo`lsa, amaliy mashg`ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg`ulotlar talabalar bilimini sinash uchun ham hizmat qiladi.

Amaliy mashg`ulot shakillaridan biri seminardir.

Seminar mashg`ulotlari quyidagi vazifalarni echishga qaratilgan bo`ladi:

- leksiyada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;
- fan bo`yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarni o`stirish;
- nazariy o`qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotda tan olinishi.

Pedagogika nazaryasi va amaliyotda seminar mashg`ulotlarining uch turi farqlanadi: seminaroldi mashg`uloti, seminar va mahsus seminar.

Seminaroldi mashg'ulotlari, asosan, talabalarni mustaqil ishining o'ziga hos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma –adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi, talabalarni boshlang'ich shakilda ilmiy - tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminaroldi mashg'ulotlari seminar mashg'ulotlarining tayorgarlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o'tkaziladi. Seminaroldi mashg'ulotlarida oqituvchi etakchilik qiladi, chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga kam e'tibor beradilar, shuning uchun ham etarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.

Seminar mashg'ulotlarida seminar oldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'langan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiy bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'ladi.

Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida yaqin aloqa, yani ular o'rtasida ikki tomonlama aloqa o'rnatiladi. Bu esa tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'ladi: o'qituvchi talabalar bilan uzoq vaqt yaqin aloqada bo'ladi, leksiya guruhlariga nisbatan talabalarining kichik guruhlarida jonli suhbat olib boradi, o'zaro fikr almashadi, turlicha qarashlarini ifoda etadi.

Seminar jarayonida o'qituvchining o'rni juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'rniga javobni aytib bermaydi, balki muxokamalarni tashkil etadi, unga derijyorlik qiladi.

O'qituvchi har bir seminar mashg'ulotiga yakun yasaydi, unda quydagilar e'tiborga olinadi:

- zamonaviy fan erishgan muammo muhokamasining holati umumiy darajasiga tavsif berish;
- ayrim talabalarining chiqishlarini tahlil qilishva baholash;
- mashg'ulotga umumiy baho berish (talabaning faolligi, uning tayorgarlik va o'sish darajasi, hamda madaniyati hamda fikrlashdagi xususiyatlari).

Takidlash joizki, seminar mashg'ulotlarida talabalarni faollashtirish, ularni muhokama qilish va taqrizdan o'tkazishga jalb etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Владимиров Я. Б. Динамические наглядные пособия по черчению в восьмилетней школе. -М.: Изд-во ДТЦ РСФСР. 1963.
2. Петровский А.В. Умный психология. - Т.,1992.
3. Платонов К.К. Психология. - Т.,1982